



Samarqand viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 560 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 43 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 517 tani tashkil etmoqda.

2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 14 745,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 107,6 % ga tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 670,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 074,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 572,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da) 2025-yil yanvar-may





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2023-2025 yillar yanvar-may, ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 067 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 036 tani tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 616,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 213,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,1 % ga yetdi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,1 % ni tashkil etmoqda.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qo'shrabot (150,7 %), Samarqand (135,5 %), Jomboy (121,3 %), Pastdarg'om (103,6 %) tumanlari va Samarqand (132,2 %) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 725 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 712 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-may oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 304,0 mlrd so'mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 73,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMO 2024-y.

2025-y.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abduraimov Tel: +998712308000 (3040)	Ijrochi: Vakant Tel: +99866 235 65 80 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
---	---	---	--